

TALABALARDA TANQIDIY VA KREATIV TAFAKKUR DARAJASINI ANIQLASH VA DIAGNOSTIKA QILISH USULLARI

Esemuratov Abdimurat Esemuratovich

O'zbekiston Respublikasi, Nukus shahri

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali, falsafa doktori (PhD), o'qituvchi

Ataxanova Gulnar Orinbaevna

O'zbekiston Respublikasi, Nukus shahri

Qoraqalpoq qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, ingliz tili o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19914429>

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim talabalari o'rtasida tanqidiy va kreativ tafakkur darajasini aniqlaydigan va diagnostika qiladigan usullar o'rganilgan. Ushbu ko'nikmalarni baholashning nazariy asoslari tahlil qilingan, xalqaro tajribada qo'llaniladigan standartlashtirilgan testlar va mahalliy amaliyotga mos keladigan vositalar ko'rib chiqilgan. Maqola natijalari asosida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy tafakkur, kreativ tafakkur, diagnostika, baholash usullari, oliy ta'lim, O'zbekiston.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar doirasida tanqidiy va kreativ tafakkurni (TKT) rivojlantirish va baholash masalasi yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida sodir bo'layotgan tezkor o'zgarishlar, axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi hamda mehnat bozorida yangi talablar yuzaga kelishi - bularning barchasi zamonaviy bitiruvchilardan mustaqil fikr yuritish, noodatiy muammolarga ijodiy yechim topish va o'z pozitsiyasini asoslay olish ko'nikmalarini talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ta'lim islohotlari ham xuddi shu yo'nalishda - shaxsning intellektual va ijodiy salohiyatini o'stirishga qaratilgan.

Liu, Frankel va Roohr (2014) tomonidan ETS doirasida o'tkazilgan yirik tadqiqotda 433 ta oliy o'quv yurti rahbarlari so'rovga jalb etilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ularning 95 foizi tanqidiy tafakkurni talabalarga zarur ko'nikmalar orasida birinchi o'rinlarga qo'ygan, ish beruvchilarning esa 81 foizi universitetlarda aynan ushbu sohaga alohida e'tibor berilishini xohlagan. Shunga qaramay, TKT ni o'lchash va diagnostika qilish uslubiyati bo'yicha yagona yondashuv hali shakllanmagan.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) ning Ta'limni tadqiq etish va innovatsiyalar markazi (CERI) TKT ni 21-asr ko'nikmalari tizimida markaziy o'ringa qo'yib, barcha ta'lim bosqichlari - maktabgacha ta'limdan oliy o'quv yurtlarigacha - uchun uslubiy bazani ishlab chiqmoqda. Paiva va hammuallif (2025) larning adabiyotlar tizimli tahliliga ko'ra, mavjud diagnostika vositalarining katta qismi yoshlar va o'rta maktab o'quvchilariga emas, balki kattalar va talabalarga mo'ljallangan; bu esa yangi, moslashuvchan vositalar yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Ushbu maqolada TKT diagnostikasining nazariy asoslari, xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan testlar va O'zbekiston ta'lim muhitiga mos keladigan yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Maqolaning asosiy maqsadi - oliy ta'lim o'qituvchilari va tashkilotchilari uchun amaliy yo'naltirilgan tavsiyalar berish.

TANQIDIY VA KREATIV TAFAKKURNING MOHIYATI

Tanqidiy tafakkur deganda odatda shaxsning o'zi biladigan va kuzatgan narsalarni sinchkovlik bilan tahlil qilish, ularga asoslanib mustaqil xulosa chiqarish va o'z fikrini isbotlay olish qobiliyati tushuniladi. Haydarova (2025) ta'kidlaganidek, bu ko'nikma faqat mantiqiy tahlil yoki baholashdan iborat emas — u o'z nuqtai nazarini himoya qilish, dalillar keltirish va boshqa qarashlarni ham hisobga olgan holda to'g'ri qaror qabul qilishni ham nazarda tutadi. D. Dyui esa tanqidiy tafakkurni muammoli vaziyat bilan bog'lab tushuntirgan: o'quvchida bu faoliyat konkret qiyinchilik yoki savol tug'ilgandagina jonlanadi.

Kreativ tafakkur esa yangilik yaratishga yo'naltirilgan, odatiy doiradan chiqib fikr yuritish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Axmedova (2025) keltirgan K. Robinsonning ta'rifiga ko'ra, kreativlik - amaliy qiymati bo'lgan original g'oyalar majmuidir. H. Gardner esa uni muayyan yangilikni o'zida mujassamlashtirgan, ijtimoiy nuqtai nazardan ahamiyatli bo'lgan faoliyat sifatida belgilaydi. G'arb va Sharq an'analarida kreativlikni tushinishda farqlar bo'lsa-da - g'arbliliklar unda noan'anaviylik va erkinlikni, sharqliklar esa yaxshilikni qayta kashf etishni ko'rsa ham - ikkala madaniyat ham bu sifatni yuqori baholaydi.

OECD CERI loyihasi doirasida ishlab chiqilgan kontseptual rubrika ikkala ko'nikmani birgalikda tavsiflaydi: tanqidiy tafakkur - g'oyalarni tekshirish va baholash, kreativ tafakkur - yangi g'oyalar va yechimlar yaratish. Ushbu rubrika to'rtta o'lcham - so'roqlash, tasavvur qilish, amalga oshirish va o'z-o'zini baholash - asosida qurilgan. Bu yondashuv o'qituvchiga TKT ni dars jarayonida ko'rinadigan qilish va uning rivojlanishini kuzatib borish imkonini beradi.

Demak, tanqidiy va kreativ tafakkur o'zaro mustahkam bog'liq bo'lib, ularni ta'lim jarayonida ajratib o'rgatish samarali emas. Diagnostika nuqtai nazaridan ham ularni yaxlit, ham alohida o'lchash metodologiyalari mavjud bo'lib, har ikki yondashuv ham amaliy qo'llanmaga ega.

DIAGNOSTIKANING NAZARIY ASOSLARI

Liu va boshqalar (2014) ETS tadqiqotida tanqidiy tafakkurni o'lchash uchun besh o'lchamli operatsion ta'rif taklif etgan: dalillarning asosliligini va ulardan foydalanishni baholash; argumentlar tuzilmasini tahlil qilish; nazarda tutilgan oqibatlarni aniqlash; o'z argumentlarini qurishga qodir bo'lish; sabab-natija munosabatlarini to'g'ri izohlash. Ushbu asos hozir ham ko'plab xalqaro baholash tizimlari uchun nazariy tayanch bo'lib xizmat qiladi.

TKT ni baholashda ikki xil yondashuv keng qo'llaniladi. Birinchisi - umumiy yondashuv bo'lib, tanqidiy va kreativ tafakkur barcha sohalariga tatbiq etiluvchi universal ko'nikma deb qaraladi. Ikkinchisi - soha-spetsifik yondashuv bo'lib, muhandislik, tibbiyot yoki ijtimoiy fanlar kabi aniq kontekstlarda alohida baholash nazarda tutiladi. Hozirgi mehnat bozori talablarini hisobga olsak, birinchi yondashuv ko'proq amaliy ahamiyatga ega, chunki xodimlarning aksariyati bir necha soha tutashuvidagi vazifalarda ishlashga majbur.

Paiva va boshqalar (2025) SCOPUS va Web of Science ma'lumotlar bazalarida 2018-2022 yillar oralig'ida chop etilgan maqolalarni tizimli tahlil qilgan. Ular mavjud baholash vositalarini ishonchlilik, amaliylik, madaniy moslashuvchanlik va ta'lim bosqichiga muvofiqligi nuqtai nazaridan solishtirib, kichik yoshdagi o'quvchilar va o'rta maktab o'quvchilari uchun ixtisoslashtirilgan vositalar tanqisligini qayd etgan.

Psixometrik sifat masalasiga kelganda, Liu va boshqalar (2014) ko'plab testlarda subskala ichki izchiligining past bo'lishini muammo sifatida ko'rsatgan. Masalan, CCTST testida bu ko'rsatkich 0,21 dan 0,51 gacha, WGCTA da esa ayrim subskalalarda 0,17 gacha tushishi aniqlangan. Shu sababli bir nechta turli vositadan foydalanib, natijalarni bir-biri bilan

taqqoslash ko'proq ishonchli ma'lumot beradi.

XALQARO DIAGNOSTIKA VOSITALARI

Dunyo oliy ta'lim amaliyotida TKT ni baholash uchun turli xil vositalar ishlab chiqilgan. Ularning eng ko'p qo'llaniladigan va ilmiy asoslanganlari quyida ko'rib chiqiladi.

Watson-Glaser Tanqidiy Tafakkurni Baholash Testi (WGCTA)

Watson va Glaser tomonidan yaratilgan va keyinchalik bir necha bor yangilangan WGCTA testi o'nlab yillar davomida tanqidiy tafakkurni o'lchashda standart vosita hisoblangan. U beshta yo'nalishni - xulosa chiqarish, farazlarni aniqlash, deduksiya, ma'lumotni talqin qilish va argumentlar kuchini baholash - tekshiradi. Tadqiqotlar WGCTA natijalarining GPA bilan o'rtacha darajada bog'liqligini ($r=.30$), ish samaradorligini bashorat qilishdagi kuchini esa ancha yuqoriroq ($r=.32-.52$) ekanligini ko'rsatgan (Liu va boshq., 2014). Shu bilan birga, bir qancha mustaqil tekshiruvlar ba'zi subskalalarda ichki izchillikning pastligini qayd etgan.

Californiyalik Tanqidiy Tafakkur Ko'nikmalar Testi (CCTST)

CCTST testi Facione (1990) rahbarligida Amerikalik falsafa assotsiatsiyasi (APA) buyurtmasi bilan Delphi usuli orqali ekspertlar konsensusiga asoslanib yaratilgan. Test 34 ta savol va 45 daqiqa vaqtdan iborat bo'lib, talqin qilish, tahlil, baholash, xulosa chiqarish, tushuntirish va o'z-o'zini nazorat qilish kabi olti o'lchamni qamraydi. O'quv natijalari (GPA) bilan korrelyatsiyasi $r=.27-.45$ oralig'ida. Testning keng tarqalganligi va bir nechta tilda mavjudligi uning afzalliklari hisoblanadi.

Halpern Tanqidiy Tafakkurni Baholash Testi (HCTA)

D. Halpern (2003) ishlab chiqqan HCTA testi beshta yo'nalishni - og'zaki fikrlash, argumentlarni tahlil qilish, gipoteza tekshirish, ehtimollik bilan ishlash, qaror qabul qilish - o'lchaydi. Testning o'ziga xos tomoni shundaki, u majburiy tanlov bilan ochiq javob formatlarini birlashtirib, kundalik hayotdan olingan konkret vaziyatlardan foydalanadi. Bu diagnostika natijalarining amaliy hayotga yaqinligini ta'minlaydi. Butler (2012) o'tkazgan tadqiqotda yuqori HCTA ko'rsatkichlariga ega shaxslar kundalik hayotda kamroq qiyinchiliklarga duch kelishi aniqlangan.

OECD Kontseptual Rubrikasi

OECD CERİ loyihasi doirasida yaratilgan kontseptual rubrika TKT ning ikkala tomonini - tanqidiy va kreativ - birgalikda aks ettiradi. U to'rtta o'lcham - so'roqlash, tasavvur, harakat va refleksiya - bo'yicha tuzilgan bo'lib, raqamli ball berish uchun emas, balki o'qituvchi va talaba o'rtasida muhokama o'tkazish, ko'nikmalarining rivojlanishini kuzatish uchun mo'ljallangan. Formativ baholash maqsadlarida, ya'ni o'quv jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan baholashda bu vosita juda qo'l keladi.

Kollejda O'rganish Natijalari Baholash Tizimi (CLA+)

CLA+ tizimi universitetlar tomonidan bitiruvchilarning umumiy intellektual o'sishini o'lchash maqsadida qo'llaniladi. Unda murakkab vazifa (performance task) va qisqa ko'p tanlovli savollar birlashtirilgan. Liu va boshqalar (2014) ta'kidlaganidek, erkin javob bo'limining ichki izchilligi atigi 0,43 ga teng — bu ancha past ko'rsatkich. Shunga qaramay, ta'lim muassasalari darajasida qiyosiy tahlil o'tkazishda bu vosita keng qo'llaniladi.

Torrens Doirachalari Metodi

Axmedova (2025) tavsifiga ko'ra, E.P. Torrens metodologiyasiga asoslangan "doiralar" testi kreativ tafakkurni tez va qulay sharoitda aniqlash imkonini beradi. Talabaga A4 varaqdagi 15 ta doiradan foydalanib, har biridan farqli rasm chizish so'raladi. Natijada: rasmlar xilma-xil bo'lsa - kreativlik yuqori, qisman farqli bo'lsa - o'rtacha, asosan bir xil bo'lsa - past deb

baholanadi. Murakkab psixometrik tayyorgarlik talab qilmasligi va tez o'tkazilishi - bu metodning asosiy amaliy afzalligidir.

O'ZBEKISTON KONTEKSTIDA DIAGNOSTIKA: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR

Respublikamiz oliy ta'limida TKT diagnostikasini joriy etishda bir qancha to'siqlar mavjud. Eng asosiysi - xalqaro testlarning deyarli barchasi ingliz tilida tuzilgan va G'arb madaniy kontekstini aks ettiradi. O'zbek yoki qoraqalpoq tilida o'qiydigan talabalar uchun bunday testlar nafaqat til to'sig'i, balki madaniy notanishlik muammosini ham keltirib chiqaradi, bu esa natijalar ishonchligini pasaytiradi.

Ikkinchi muammo - TKT ni o'lchashning ta'lim amaliyotiga qo'shilmaganligi. Haydarova (2025) ta'kidlashicha, ko'p o'qituvchilar bu ko'nikmalarni o'stiruvchi metodlarni bilsa ham, ularni dars jarayonida muntazam qo'llamaydi. Kudyarova (2024) esa yangicha yondashuvlarni joriy etish uchun faqat xohish emas, o'qituvchilar uchun maxsus kasbiy rivojlanish dasturlari ham zarurligini ko'rsatadi.

Uchinchi muammo - baholash asosan yakuniy nazorat shaklida amalga oshiriladi, o'quv jarayonidagi rivojlanishni kuzatuvchi formativ baholash esa juda kam qo'llaniladi. OECD CERi tavsiyalariga ko'ra, o'qituvchilar dars loyihasini shunday tuzishlari lozimki, talabalar o'z TKT darajasini o'zlari ham sezib, unda maqsadli ish olib borishlari mumkin bo'lsin.

Biroq vaziyat umidsiz emas. O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim islohotlari, chet el universitetlari va tashkilotlar bilan kengayib borayotgan hamkorlik, elektron ta'lim platformalarining rivojlanishi — ularning barchasi mahalliy kontekstga moslab yaratilgan diagnostika vositalarini ishlab chiqish uchun imkon yaratmoqda. Xususan, Qoraqalpog'iston mintaqasining ikki tilli muhiti — o'zbek va qoraqalpoq tillari — bu borada qo'shimcha ilmiy qiziqish uyg'otadi.

AMALIY TAVSIYALAR

Yuqorida bayon etilgan tahlillar asosida O'zbekiston oliy ta'limida TKT diagnostikasini takomillashtirish uchun quyidagi qadamlar maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. Ko'p formatli baholashga o'tish: Faqat test va nazorat ishlari bilan cheklanmasdan, talabalarni ochiq savollar, guruh muhokamasi, rolli o'yin va loyiha topshiriqlari orqali ham baholash lozim. Bu TKT ning turli qirralarini yoritishga yordam beradi.
2. Formativ baholashni kuchaytirish: O'qituvchilar har bir darsda kichik refleksiya topshiriqlari, OECD rubrikasiga asoslangan o'z-o'zini baholash varaqlari yoki BBB jadvali («Bilardim / Bildim / Bilib oldim») dan foydalanishlari mumkin.
3. Mahalliy tilga moslashtirish: Xalqaro testlarni qo'llashda yoki yangi vositalar yaratishda o'zbek va qoraqalpoq tillari va madaniy kontekstga e'tibor berish talab etiladi. Lopes, Silva va Morais (2019) ishlab chiqqan real hayotiy stsenariylar asosidagi test buning yaxshi namunasidir.
4. Torrens doirachalari metodini joriy etish: Semestr boshida yoki o'quv yili davomida talabalar kreativ tafakkurini aniqlash uchun bu metoddan foydalanish oddiy, tez va samarali yo'ldir.
5. O'qituvchilar malakasini oshirish: OECD CERi kasbiy ta'lim tizimi singari tuzilmalashtirilgan dasturlar orqali o'qituvchilarni TKT ni ham o'qitish, ham baholash bo'yicha muntazam tayyorlab borish zarur.
6. Baholash maqsadini aniq belgilash: Individual va guruh darajasidagi baholash turli hajmda ma'lumot talab qiladi. Liu va boshqalar (2014) ko'rsatganidek, individual

ishonchlilik uchun ko'proq topshiriq kerak, guruh darajasida esa bu shunchalik muhim emas. O'qituvchilar diagnostika o'tkazishdan oldin maqsadni aniq belgilashlari lozim.

XULOSA

Talabalarda tanqidiy va kreativ tafakkurni diagnostika qilish - murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning samarali yo'lga qo'yilishi bevosita o'qituvchilar tayyorgarligi, qo'llaniladigan vositalar sifati va ta'lim muassasasining strategik yo'nalishiga bog'liq. WGCTA, CCTST, HCTA, CLA+ kabi standartlashtirilgan testlar chuqur psixometrik asosga ega, biroq ularni O'zbekiston kontekstida qo'llash madaniy va lingvistik moslashtirishni talab qiladi. OECD rubrikasi va Torrens doirachalari metodi esa murakkab texnik tayyorgarliksiz ham darsda samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan yondashuvlardir.

Respublikamiz oliy ta'limi uchun eng dolzarb yo'nalish - turli formatlarni birlashtiradigan, o'zbek va qoraqalpoq tillariga moslashtirilgan, formativ va summativ baholashni uyg'unlashtirgan diagnostika tizimini yaratishdir. Bu ishni amalga oshirish uchun olimlar, o'qituvchilar va ta'lim muassasalari rahbariyati o'rtasida yaxlit hamkorlik yo'lga qo'yilishi zarur.

Keyingi tadqiqotlar mahalliy kontekstga moslashtirilgan yangi vositalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotda sinashga, shuningdek O'zbekistondagi oliy ta'lim talabalarida TKT darajasini aniqlashga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedova D.E. (2025). Talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari. "Aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar" xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari, 473-475 b. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15653972>
2. Haydarova K. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish darslarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini takomillashtirish. *Science and Innovation: International Scientific Journal*, 4(12), 158-162 b. <https://doi.org/10.5281/zenodo.18054835>
3. Kudyarova A. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodkorlik va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion o'qitish usullari. *International Journal of Artificial Intelligence*, 4(05), 45-48 b.
4. Liu O.L., Frankel L., & Roohr K.C. (2014). Assessing critical thinking in higher education: Current state and directions for next-generation assessment. ETS Research Report Series, RR-14-10. <https://doi.org/10.1002/ets2.12009>
5. OECD CERI (2022). Fostering creativity and critical thinking in university teaching and learning. OECD Education Working Papers. <https://doi.org/10.1787/09b1cb3b-en>
6. OECD CERI (2025). Supporting teachers to foster creativity and critical thinking: Professional learning framework. OECD Centre for Educational Research and Innovation.
7. Paiva R.S., Costa A.P., Reis L.P., & Pino-Juste M. (2025). Selection of critical and creative thinking assessment instrument: Systematic review of the literature. *Cadernos de Educacao Tecnologia e Sociedade (BRAJETS)*, 18(2), 603-625 b. <https://doi.org/10.14571/brajets.v18.n2.603-625>
8. Facione P.A. (1990). *Critical thinking: A statement of expert consensus for purposes of educational assessment and instructions*. Millbrae, CA: California Academic Press.
9. Halpern D.F. (2003). *Thought and knowledge: An introduction to critical thinking*. Mahwah, NJ: Erlbaum.